

“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA ONA TILI DARSLIGINI SAMARALI
O‘TISH“

Kadamova Mohinur Mamurbek qizi
*Urganch Davlat Universiteti Boshlang‘ich
ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga onatili darsligini samarali o‘qitish yo‘llari va bolalarni onatili darsligiga qiziqishlarini oshirish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqil faoliyat, ona tili darsligi, intellekt, ma‘naviyat, o‘z fikrini bayon qilish, metodika, psixolingvistika.*

Аннотация: *В данной научной статье рассказывается о способах эффективного преподавания учебников родного языка учащимся начальных классов и повышения интереса детей к учебникам родного языка.*

Ключевые слова: *Самостоятельная деятельность, учебник родного языка, интеллект, духовность, выражение своего мнения, методика, психолингвистика.*

Abstract: *This scientific article talks about ways to effectively teach native language textbooks to elementary school students and increase children's interest in native language textbooks.*

Key words: *Independent activity, native language textbook, intellect, spirituality, expression of one's opinion, methodology, psycholinguistics.*

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamizl ” degan da‘vatlari ta‘limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yoshlarimizning mustaqil va erkin fikrlay olishi, albatta ularning maktabda qanday ta‘im-tarbiya olishiga bog‘liq. O‘quvchilarning mustaqil faoliyatini ta‘lim jarayonida mustaqil ishlarni bajarish jarayoni shakllantirib beradi. Mustaqil ish bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashi, ziyrak va hozirjavob bo‘lishiga yordam beradi. Buning uchun o‘quvchini ruhan tayyorlash, ko‘zlangan ishni bajarish uning qo‘lidan kela olishiga ishontirish lozim. Bunda bolani nazorat qiluvchiga ham mas‘uliyat yuklanadi. U puxta o‘ylangan, maqsadli va davomiy mashqlarni tavsiya etishi kerak. Boshlang‘ich ta‘limda o‘qituvchi o‘quvchining imkoniyati, yosh xususiyati, qiziqishlarini e‘tiborga olish zarur. O‘g‘il-qizlarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to‘liq “eslab qolib” bajarishdir.

Bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Dastlabki bajargan mustaqil ishidan o'quvchi mamnun bo'lsa, qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Bola avval o'ylaydi, fikrini jamlaydi, so'ng uni yozishga kirishadi. O'z fikrini bayon qilish, qo'yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o'quvchi o'z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o'ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o'zicha gapiradi(pedagogikada bu aktiv faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o'qib, og'zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o'ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalashtirdi. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim, beriladigan har bir topshiriq o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin; ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin; – ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda o'zlarida dadillik sezsin; mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin(hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish, mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak; topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish lozim, topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim, ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi(parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak, topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin.

Ma'lumki, darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar darsning tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinfda ona tilidan o'rganiladigan har bir mavzuning qiyinlik darajasiga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi. Ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

Birinchi talab: mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan bo'lishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga mos bo'lishi, o'quvchilarni tilni o'zlashtirishga qiziqtirishi lozim; Ikkinchi talab: o'qituvchi tomondan berilgan topshiriq o'quvchilarning o'quv materialini faol idrok etishini ta'minlashi zarur; Uchinchi talab: mustaqil ish hayotiy bo'lishi, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo'lmog'i kerak.

“Ona tili” darsliklari materillari o'zida grammatik kategoriyalarni, so'z yasash shakllari va usullari, so'z o'zgartirish va gap tuzish yo'llari, orfoepik va orfografik hamda punktuatsion qoidalarni mujassamlashtirgan. Darslikdagi qonun-qoidalar

o‘zining abstrakligi, umumiyliги bilan xarakterlanadi. Demak, o‘quvchining umumiy taraqqiy qilishda ona tili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri bolalarning tafakkurini o‘stirish, ularda kitob ustida ishlash malakalarini takomillashtirishdan iborat. O‘quvchi maktabda darslik ustida mustaqil ishlashni qanchalik puxta o‘rgansa, maktabni bitirib chiqqandan so‘ng o‘z bilimini oshirish uchun shunchalik muvaffaqiyatli ishlay oladi. Boshlang‘ich ta‘limda “Ona tili” faniga oid mustaqil ishlar o‘quvchilarni bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bilim esa ana shu mustaqil ishlar orqali bola faoliyatiga o‘tadi va puxta egallanadi. Mustaqil ishlar orqali egallangan bilimlar o‘quvchining amaliy faoliyat mahsuliga aylanadi va bu bilimlardan u istagan joyda: tanish sharoitida ham, notanish sharoitida ham bemalol foydalana oladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyovning nutq va ma‘ruzalarida maktabgacha ta‘limni rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir fikrlari hamda yondashuvlari, O‘zbekiston respublikasi Hukumati, O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-2021 yillarda boshlang‘ich ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish Dasturi, oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyatni sifatli yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlashga qaratilgan me‘yoriy Hujjatlari, mavzuga oid ilmiy pedagogik, psixologik, metodik manbalar. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Metodik fan sifatida ona tili o‘qitish metodikasi boshlang‘ich ta‘lim standarti belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya‘ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko‘ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta‘rif va qoidaga, shular asosida yana og‘zaki va yozma tarzda nutqiy aloqaga, to‘g‘ri yozuv va to‘g‘ri talaffuzga o‘tiladi. O‘quvchilar jonli nutqiy aloqaga to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozuvni elementar nazariy ma‘lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o‘rgangan va o‘zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Maktabda ona tili o‘qitish metodikasining bunday yo‘nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:
ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;
umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limining majburiyligi;
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining yo‘nalishini:

akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;

ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Bu tamoyillar boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasining vazifalarini ham belgilab, aniqlashtirib beradi. Qonunda ta’kidlanganki, boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ona tili o‘qitish metodikasi fani ham ta’lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi. Ona tili o‘qitish metodikasi psixologiya va pedagogika ma’lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi. Pedagogik psixologiya kishiga ta’lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z predmeti deb biladi. U o‘quvchilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o‘rganadi. Metodika psixologiya fani ma’lumotlariga tayanib o‘qitishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ona tili o‘qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog‘liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida - fikrni bayon qilish turlarini belgilovchi omillar, “nutqni qabul qilish signallari” apparati, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta’sirning foydasi haqida ma’lumot beradi.. Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o‘zaro bog‘lanadi. Maktab ta’limidagi har bir o‘quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatdan ham, ona tili o‘qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o’sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma’lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o‘rganadi va hok. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o‘qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma’lumotlariga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I.Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz”. - Toshkent: “O‘zbekiston”,2016.

2.Sh.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. -Toshkent: “O‘zbekiston”,2017.

3.R.A.Mavlonova., D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T.:Fan va texnologiya, 2012.

4.Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 252-257;